

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2017 yil 1 iyul holatiga 1786,9 ming kishini tashkil etib, 2017 yilning yanvar-iyun oylarida 10,2 ming kishiga yoki 0,6 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 574,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 32,2 %), qishloq aholisi soni 1212,0 ming kishini (67,8 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2017 yil yanvar-iyun


- Aholi soni **10,2 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **14,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- **4,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **8,0 mingta nikoh** va **0,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Xorazm viloyat aholisining umumiyo'sishi (2017 yil yanvar-iyun oylarida)

Tirik tug'ilganlar
14,7 ming bola



Ko'chib kelganlar
3,9 ming kishi




Vafot etganlar
4,0 ming kishi


Ko'chib ketganlar
4,4 ming kishi

Demografik holat

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2017 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2017 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Xazorasp tumanida 237,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3 %ni) va Urganch tumanida 188,1 ming kishini (10,5 %), aksincha eng kam aholi soni Yangibozor tumanida 83,3 ming kishi (4,7 %) va Yangiariq tumanida 110,8 ming kishini (6,2 %) tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2017 yilning yanvar-iyun oylarida 14,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 16,6 promilleni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega kamaygan (2016 yilning yanvar-iyun oylarida 17,4 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2016 yilning mos davriga nisbatan Xonqa (18,5 promilledan 17,3 promillega) Urganch (17,0 promilledan 16,4 promillega) Gurlan (19,4 promilledan 17,9 promillega) va Shovot (17,1 promilledan 16,9 promillega) tumanlarida sezilarli kamayish kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qiz bolalar:
7,0 ming
nafar

O'g'il bolalar:
7,7 ming nafar

Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi, yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	2016 y	2017 y	o'sish, %
Viloyat bo'yicha jami	15172	14726	97,1
Urganch shahar	1298	1232	94,9
Xiva shahar	-	637	-
tumanlar:			
Bog'ot	1363	1 376	101,0
Gurlan	1346	1 261	93,7
Qo'shko'pir	1150	1 146	99,7
Urganch	1552	1 529	98,5
Xazorasp	2256	2 131	94,5
Xonqa	1602	1 526	95,3
Xiva	1552	956	61,6
Shovot	1343	1 355	100,9
Yangiariq	897	810	90,3
Yangibozor	813	767	94,3

Vafot etganlar. 2017 yilning yanvar-iyun oylarida 3,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2016 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega oshdi (2016 yilning yanvar-iyun oylarida 4,3 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2016 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Shovot (4,7 promilledan 5,5 promillega) va aksincha Yangibozor (4,1 promilledan 5,0 promillega), Gurlan (4,4 promilledan 4,8 promillega) va Xazorasp (4,0 promilledan 4,6 promillega) tumanlarida kuza-tildi.

Vafot etganlar



Erkaklar: **Ayollar:**
2,1 ming **1,9 ming**
kishi

Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (kishi, yanvar-iyun)


Shahar va tumanlar	2016 y	2017 y	o'sish, %
Viloyat bo'yicha jami	3756	4032	107,4
Urganch shahar	428	443	103,5
Xiva shahar	-	195	-
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	354	357	100,8
Gurlan	308	336	109,1
Qo'shko'pir	321	320	99,7
Urganch	367	389	106,0
Xazorasp	461	539	116,9
Xonqa	336	371	110,4
Xiva	443	271	61,2
Shovot	366	364	99,5
Yangiariq	206	243	118,0
Yangibozor	166	204	122,9

Demografik holat

2017 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,0 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,4 %i o'simtalardan, 6,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,6 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 68,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 11,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,4 %i tug'ma anomaliyalardan, 0,3 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,2 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan va 5,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'llim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2017 yil yanvar-iyun

Tabiiy o'sish. 2017 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 10,2 ming kishini tashkil etib, 2016 yil mos davriga nisbatan 0,7 ming kishiga (2016 yilning yanvar-iyun oylarida 10,9 ming kishi bo'lган) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
10,2 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2017 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 9,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2016 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bog'ot (115,7 %), Qo'shko'pir (114,1 %), Gurlan tumani (110,8 %), Yangibozor (111,5 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar.

2017 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2016 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'atlari Xonqa (95,7%), Xiva (88,9 %), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni (birlik, yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2016 yil	2017 yil	o'sish, %	2016 yil	2017 yil	o'sish, %
Viloyat bo'yicha jami	7508	7978	106,3	504	700	138,9
Urganch shahar	546	624	114,3	92	139	151,1
Xiva shahar	-	317	-	-	15	-
tumanlar:						
Bog'ot	631	730	115,7	24	35	145,8
Gurlan	584	647	110,8	28	56	200,0
Qo'shko'pir	759	866	114,1	29	70	241,4
Urganch	719	780	108,5	67	95	141,8
Xazorasp	999	1 040	104,1	54	83	153,7
Xonqa	844	777	92,1	47	45	95,7
Xiva	833	590	70,8	63	41	88,9
Shovot	685	699	102,0	47	49	104,3
Yangiariq	534	491	91,9	26	45	173,1
Yangibozor	374	417	111,5	27	27	100,0

Migratsiya. 2017 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,9 ming kishini , ko'chib ketganlar soni esa 4,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,5 ming kishi bo'lib,

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2016 yil yanvar-iyun	2017 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	3,1	3,9
Ko'chib ketganlar	3,6	4,4
Migratsiya saldosi	-0,5	-0,5

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Xazarasp tumani (minus 0,2 ming kishi), Gurlan tumani (minus 0,1 ming kishi), Xonqa tumani (minus 0,05 ming kishi) qayd etildi.